

"WELCOME 35" AKSIYASI QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Ushbu Aksiya qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) ommaviy oferta hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, “**WELCOME 35**” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish shartlari, ishtirok etish tartibi, ishtirokchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar, ularni aniqlash mezonlari, sovrinlarni topshirish tartibi hamda ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan boshqa shartlarni belgilaydi.

Mazkur Qoidalar bilan tanishish va Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur ommaviy ofertani to‘liq qabul qilganligini (aksept qilganligini) anglatadi.

1.2. Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi.

1.3. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy va majburiy emas.

1.4. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan bank mijozlarini rag‘batlantirish, bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanish faolligini oshirish, “Moment karta” egalari o‘rtasida hisob-kitoblarni rivojlantirish hamda faol bank xodimlarni taqdirlash maqsadida o‘tkaziladi.

1.5. Tashkilotchining aloqa ma’lumotlari:

- ⌚ **Tashkilotchi:** "Biznesni rivojlantirish banki" ATB
- ⌚ **Elektron pochta manzili:** info@brb.uz
- ⌚ **Rasmiy veb-sayt:** www.brb.uz
- ⌚ **Telefon raqami:** ++998 78150-00-55;
- ⌚ **Yuridik manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy

1.6. **Aksiya davri:** Aksiya 3 (uch) oy muddatda, 01.08.2026-31.10.2026 yilgacha oraliqda o‘tkaziladi.

1.7. Aksiya 3 (uch) ta bosqichda (oylik turda) amalga oshiriladi:

- ⌚ **1-bosqich (1-tur):** 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 31-avgustgacha;
- ⌚ **2-bosqich (2-tur):** 2026-yil 1-sentabrdan 2026-yil 30-sentabrgacha;
- ⌚ **3-bosqich (3-tur):** 2026-yil 1-oktabrdan 2026-yil 31-oktabrgacha.

1.8. Aksiya davri Tashkilotchi tashabbusi bilan uzaytirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Aksiya davri uzaytirilganda yoki o'zgartirilganda, Ishtirokchilar Tashkilotchining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari orqali xabardor qilinadi.

2. AKSIYA ISHTIROKCHILARI VA SHARTLARI

2.1. Aksiya "Moment karta" sohibi bo'lgan muomala layoqatiga ega yoshi 18dan oshgan jismoniy shaxslar (bank mijozlari) hamda bankning tegishli yo'nalishdagi xodimlari ushbu Qoidalarda belgilangan shartlar bo'yicha ishtirok etadilar.

2.2. **Mijozlar uchun ishtirok etish sharti:** Aksiya davrida "Moment karta" orqali faol amaliyotlarni (kamida 100 000 so'm debet oborot/to'lovlarni) amalga oshirgan va bank mezonlariga mos kelgan mijozlar avtomatik ravishda Aksiya ishtirokchisiga aylanadilar.

2.3. Mijozlar uchun mo'ljallangan sovrinli o'yinda bank xodimlarining ishtiroki inobatga olinmaydi va chetlashtiriladi.

2.4. **Xodimlar uchun ishtirok etish sharti:** Aksiya davri davomida "Moment karta"larni emissiya qilish va targ'ib etishda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan bank filiallari xodimlari alohida nominatsiya bo'yicha ishtirok etadilar.

3. AKSIYA SOVRIN JAMG'ARMASI

3.1. Aksiya sovrin jamg'armasining umumiy qiymati **110 000 000 (bir yuz o'n million) so'mni** tashkil etadi.

3.2. Aksiya sovrin jamg'armasi **"Yagona umumrespublikasi protsessing markazi" AJ** (100 000 000 so'm miqdorida) hamda Tashkilotchining o'z mablag'lari (10 000 000 so'm miqdorida) hisobidan shakllantiriladi.

Sovrin jamg'armasi va uning tarkibi quyidagicha taqsimlanadi:

Nomi / Yo'nalish	Har bir bosqich (oy) bo'yicha sovrinlar	Jami (3 oy davomida)	Xususiyati / Izoh

Nomi / Yo‘nalish	Har bir bosqich (oy) bo‘yicha sovrinlar	Jami (3 oy davomida)	Xususiyati / Izoh
Mijozlar uchun oylik sovrinlar	• 1 dona Air iPhone • 1 dona Yandex Stansiya Mini 3 • 1 dona Televizor	• 3 dona Air iPhone • 3 dona Yandex Stansiya Mini 3 • 3 dona Televizor	Har oy yakuni bo‘yicha tasodifiy tanlash generatori orqali aniqlanadi.
Mijozlar uchun Super Sovrin	—	1 dona (2 kishilik xorijiy sayohat yo‘llanmasi)	Aksiyaning 3-oyi yakunida barcha davr faol ishtirokchilari orasida o‘ynaladi.
Xodimlar uchun oylik sovrin	1 dona esdalik tangasi	3 dona esdalik tangasi	Har oyda eng yuqori natija ko‘rsatgan 1 nafar xodimga beriladi.

3.4. Tashkilotchi zarurat tug‘ilganda Aksiya sovrin jamg‘armasiga o‘zgartirishlar kiritish, shu jumladan sovrinlar soni, to‘plami, turi va boshqa xususiyatlarini o‘zgartirish yoki qo‘shimcha sovrinlarni kiritish huquqiga ega. Mazkur o‘zgartirishlar Tashkilotchining rasmiy veb-sayti va (yoki) rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi hamda ishtirokchilarning avval orttirilgan huquqlari cheklanmaydi.

3.5. Sovrin jamg‘armasini natura ko‘rinishida pul ekvivalenti yoki boshqa natura sovrinlarga almashtirish ishtirokchi/g‘olib istagiga ko‘ra ko‘rib chiqilmaydi va amalga oshirilmaydi.

4. G‘OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI VA KOMISSIYA

4.1. Mijozlar o‘rtasida oylik sovrinlar va Super Sovrin g‘oliblarini aniqlash har bir bosqich (oy) yakunlangandan so‘ng, hisobot kelasi oyning 10-sanasida (yoki undan keyingi birinchi ish kunida) qadar tasodifiy raqamlar generatori yordamida onlayn/shaffof tarzda o‘tkaziladi.

4.2. Bank xodimlari o‘rtasida g‘olib har oy yakuni bo‘yicha "Moment karta" emissiyasi va ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yuqori natijani qayd etgan xodimlar

orasidan Marketing va Chakana biznes departamentlari hisobotlariga ko'ra aniqlanadi.

4.3. Aksiya sovrinlarini o'ynash tartibi, xolisligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida Tashkilotchi tomonidan maxsus Komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga quyidagi tarkibiy tuzilmalar vakillari kiradi:

- ⌚ Chakana biznes departamenti;
- ⌚ Marketing departamenti;
- ⌚ Bank kartalari tizimini qo'llab-quvvatlash departamenti;

4.4. G'oliblar aniqlangandan so'ng, ularning ro'yxati va o'yin natijalari Tashkilotchining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinadi.

4.5. Agar g'olib bo'lgan mijoz yoki xodim sovrinni olishdan voz kechsa yoki Qoidalarda belgilangan muddatda aloqaga chiqmasa, Komissiya qaroriga ko'ra sovrin zaxiradagi keyingi ishtirokchiga o'tkazilishi mumkin.

5. SOVRINLARNI TOPSHIRISH SHARTLARI VA TARTIBI

5.1. G'oliblar aniqlangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Bank xodimlari mijoz bilan u ro'yxatdan o'tgan telefon raqami orqali bog'lanadilar va g'oliblar ro'yxatini Bankning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qiladilar.

5.2. Sovrinlarni topshirish g'olibning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli (pasport yoki ID-karta) va JSHSHIR ma'lumotlari taqdim etilishi shart.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, g'oliblarning yutuqlari bo'yicha yuzaga keladigan soliq majburiyatlari va ushlanmalar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Tashkilotchi hamda tegishli regulyatsiya tartibida amalga oshiriladi.

6. QO'SHIMCHA SHARTLAR VA JAVOBGARLIK

6.1. Firibgarlik harakatlari, til biriktirish, ma'lumotlarni soxtalashtirish, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kelishuvlar aniqlanganda, xoh Tashkilotchi yoki uning vakillari bilan, xoh sovrinni olishda to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita manfaatdor boshqa shaxslar bilan, xoh bitta ishtirokchi, xoh ishtirokchilar guruhi tomonidan birga ishtirok etish holatlari aniqlansa, Tashkilotchi bir tomonlama tarzda yutuqli o'yin natijalarini bekor qilish va Aksiya g'olibini qayta aniqlash huquqiga ega.

6.2. Bank ushbu Qoidalar shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish yoki Aksiyani muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega. Bunday holatda

o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) kun oldin Bank veb-saytida e'lon qilinadi hamda bunday o'zgartirishlar ular kuchga kirguniga qadar aniqlangan g'oliblarning huqulariga ta'sir etmaydi.

6.3. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisining har qanday xatolari natijasida yuzaga kelgan har qanday oqibatlar, shu jumladan yetkazilgan zararlar uchun javobgar emas.

6.4. Tashkilotchi har qanday vaqtda Aksiyadagi firibgarlikning oldini olish uchun qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy qilish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ishtirokchining har qanday vijdotsiz harakati aniqlansa, uning natijalari bekor qilinadi va ishtirokchi Aksiyadan chetlashtiriladi.

6.5. Tashkilotchi o'zida mavjud texnik imkoniyatlar, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalaridagi talablarni inobatga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish vijdonliligini mustaqil ravishda baholaydi.

6.6. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.



IMZOLANGAN:

Chakana biznes departamenti Departament direktori v.b.:

N.Xikmetov

kelishuvchilar: U.Yoshozaqov, A.Akhrorkho'jayev, S.Tilavov, S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=oF42sQ71&id=fadb9d3f-3e28-490b-8dcb-82dbdab1f47e>